

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI

Muhammadiyev Obidjon Nosirovich

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-sod kasb-hunar maktabi, Maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotasiya:** davomati va o'zlashtirishi past imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlash haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, tarbiya, o'quvchi, bilim, ko'nikma, malaka, innovatsion usul, interfaol va kreativ yondashuv, faollikni oshirish.

Zamonaviy raqamli texnologiyalari davrida ta'limning eng muhim sifatlari uchun sharoitlar, imkoniyatlar juda ham ko'pdir. O'qituvchi dars mashg'ulotlarida maqsadga erishishda o'zining mahorati, qo'llanilgan dars uslubi, o'quv xonasining jihozlanganligi albatta o'quvchini ko'nikma olishida muhim rol hisoblanadi. Ta'lif maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lif jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriylar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriylar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunning zamonaviy o'qituvchisi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lif usullarini yaxshi bilishi kerak.

Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Mustaqil o'ylay oladigan, tafakkur yuritib, to'g'ri ma'qul va maqbul ish tuta oladigan, vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak deb ta'kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o'z nutqlarida. Ushbu yuqoridagi prezidentimiz ta'kidlaganidek, bugungi kunning o'qituvchisi har tomonlama yetuk, bilim saviyaga ega bo'lgan, dunyo qarashi keng bo'lgan motivator ham bo'lishi lozim.

Zamonaviy IT-texnologiyalar davrida yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishiga zamin yarata olmaymiz. Eng avvalo, kasb-hunar ta'lif jarayonida o'quvchilarga to'g'ri va maqsadga muvofiq bilim berish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning yorqin misoli Yaponiya modelini misol qilish mumkin. Davlat tomonidan yoshlarga bo'lgan imkoniyatlar natijasida, 9-10 yil davomida Yaponiya qudratli davlatga, salohiyatli kadrlarga ega bo'ldi. Bizda ham yoshlarga e'tibor yildan-yilga imkoniyatlar oshib bormoqda. Bunga ko'plab misollarni ko'rsatish mumkin.

1. Mahalla fuqarolar yig'inida hokim yordamchisi, yoshlar yetakchi lavozimlarini tashkil etilishi.

2. 2018 yilda Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun oliy ta'limgiz tizimiga kirishda 2% kvotalarini berilishi.
3. Oliy ta'limgiz tizimlarini ko'payishi va berilayotgan imkoniyatlar.
4. Oliy ta'limgiz tizimlari mustaqil moliyalashtirish tizimlariga o'tilishi.
5. Ta'limgiz sifatini oshirishda muassasalarda kredit modul tizimlarini tashkil qilinishi.
6. Kasb-hunar maktablarida amaliy ko'nikmalarni hosil qilishda dual ta'limgiz tashkil qilinishi.
7. Maktablarda inklyuziv ta'limgiz rivojlantirilishi.
8. Ta'limgiz muassasalar tasarrufida unitar korxonalar ochilishi.
9. 2022-2023 o'quv yilidan xotin-qizlar uchun oliy ta'limgizda o'qishlarida bepul grantlar, kontrakt uchun foizsiz kreditlar berilishi, albatta biz yoshlar uchun davlatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlardir.

Hozirda kunda ta'limgiz tizimida o'quvchilar amaliy ko'nikmalarni olishlarida muammolar kamroqday, lekin davomati past va bo'sh o'zlashtiruvchi uy ta'limgizda o'qiyotgan o'quvchilar uchun muammolar bor desak adashmaymiz. Bu muammolarni bartaraf etishda hozirgi kunda qilinayotgan ishlarni zamirida maktablarda inklyuziv ta'limgiz joriy qilinishi, oliy ta'limgiz tizimlarida professor-o'qituvchilar imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlash mavzulari bo'yicha ilmiy ishlarni ko'payganini guvohi bo'lyapmiz.

Tadqiqotlar, kuzatishlar asosida ayta olamizki, boshlang'ich ta'limgiz davrida o'quvchida o'yin faoliyatining o'rnnini o'qish faoliyati egallaydi. O'qib-o'rganish bolaning vazifasi, ijtimoiy burchi bo'lib qoladi. O'qish jarayonida u darsliklarini va o'quv qurollarini saranjom saqlash, o'z vaqtida o'rnnidan turish, mакtabga belgilangan vaqtda borish, uyga berilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ko'nikmalarni o'zlashtiradi. O'quvchi tobora mas'uliyatli bo'lib boradi. Bilimlar bolaning saviyasini o'stiradi, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, sezgilarini va irodasining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bu davrda ham bolaning diqqati hali beqaror bo'ladi. O'zlashtirishi past o'quvchi xotirasida ham o'zgarishlar ro'y beradi. O'quvchida mustahkamlash yaxshi bo'lsa, ta'limgiz jarayonida o'quv materialining ko'p qismini ixtiyoriy ravishda eslab qoladi. Shu bilan birga o'z-o'zini doimo nazorat qilib borishi lozim. Buning natijasida o'quvchining xotirasi takomillashadi, tafakkuri va fikrlashi o'sadi. Ular o'zlari idrok etgan yoki tasavvur qilgan narsalar haqidagina fikr yuritadilar. Mantiqiy tafakkurning dastlabki ko'rinishlari shakllana boshlaydi.

Uy-ta'limgiz o'quvchilarni har xil toifalari mavjud. Masalan ko'zi zaif o'quvchi, tayanch harakatida nuqsoni bor va boshqa turdag'i o'quvchilar mavjud. Ushbu toifadagi o'quvchilar bilan ham psixologik, motivator, kreativ yondashish bilan ishslash albatta maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularda qiziquvchanlik, intilish kuchli lekin fikrlash doirasi kamroq bo'ladi. Avvalo fanga qiziqtirishda motivatsion, innovatsion tushunchalar bilan dars mashg'ulotlari olib borilsa fanga, darsga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Ular ta'limgiz olishni burch ekanligini anglab yetadilar.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni guruh toifalari bo'yicha tahlil qilamiz.

Buning uchun Ms Word dasturida ishslash mavzusini ko'zi zaif ko'rurvchi va tayanch harakatida nuqsoni bor o'quvchilar o'rtasida dars mashg'ulotini tahlil qilamiz.

Dastlab ko'zi ojiz o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini olib boramiz. Quyidagi jadval orqali amalga oshiramiz. (Jadval-1)

### 1-Jadval

	O'quvchilar toifasi	Ko'zi ojiz o'quvchilar
	O'quvchilar hohish-idroki	O'quvchi kop'roq eshitishni, dars jarayoni bevosita ARM kutubxonada o'tkazilish tarafdori, O'quvchi mehrga muhtojligi.
	O'quvchi qobiliyati va imkoniyati	Dars mashg'ulotlari tushuntirilganda, eslab qolish qobiliyatları yaxshi ekanligi aniqlandi.
	Shaxsiy kompyuterda amallar bajarish	Zaif ko'rurvchi o'quvchilarga Ms Word dasturini ishga tushurishda JAWS dasturidan foydalanish, Dasturda matn yozish ARIAL shrift mos kelishi aniqlandi. Ularni xotirasi kuchligini hisobga olgan holda kompyuter terminlarini ruscha tarjimalarini aytib o'tish kerakligi yaxshi samara berdi.
	Dars mashg'ulotida qo'llanilgan metodlar	SWOT tahlil, kichik guruhlarda ishslash, aqliy hujum, blits so'rov, so'z o'yini, Kim topqir, FSMU metodi, Xotira mashqi.
	Natijalar va tahlillar	So'z o'yini, Swot tahlil, Kim topqir, Kompyuterda tez yozish o'yinlarida yaxshi natijaga erishdilar. Barcha o'quvchilar qiziqish, amalda bajarish ketma-ketligiga erishildi.
	Takliflar	Ko'zi ojiz o'quvchilarga maxsus printerlar, o'quv xonasi maxsuslashtirgan, hamda mustaqil o'quv korpuslar yurganda yo'l belgilari qoyish kerakligi, kompyuterda zamonaviy JAWS dastur bo'lish kerakligi va qo'shimcha ravishda barcha fan o'qituvchilar uchun audio darsliklarni qo'llash kerak.

### Maxsus dasturiy ta'minotni qo'llanilishi

Dars davomida NVDA va JAWS dasturlaridan foydalanildi. Har ikki dastur Ms Word dasturi bilan munosabatga kirisha oladi. Bu yo'nalishda JAWS imkoniyatlari biroz ko'proq. Chunki ushbu dastur yordamida sichqoncha kursori bilan yaxshi ishslash mumkin, birgina "F"6 va "F"7 tugmalari orqali sahifadagi sarlavhalar va linglarni ajratib olib tanishish mumkin.

**Elektron ma'lumotlar, jadvallar bilan tanishish.** Elektron ma'lumotlardagi hujjat nomlari, sarlavhalar, tasvirlar, jadvallar, shakllar, ro'yxatlar va havolalar kabi turli xil elementlarni ovozlashtirishda NVDA dasturi imkoniyati ko'proqligini tushunib yetdik. Kursor hujjatning nechanchi qatorida, nechanchi sahifasida, qaysi yacheyskasida turgani kabi kichik detallarni shu dastur yaxshiroq tanishtiradi.

**Brayl displeylari bilan ishslash.** Brayl displeylaridan foydalanilganda, NVDA imkoniyatlari ko'proqdir. JAWS turli ortiqcha dasturlarni o'rnatib yuborgani sababli ham bu borada biroz og'ir ishlashi mumkin.

Ms Word dasturida ishslash mavzusini tayanch harakatida nuqsoni bor o'quvchilar o'rtasida dars mashg'ulotini tahlil qilamiz. (Jadval-2)

### 2-Jadval

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-2, ISSUE-16 (28-March)**

Nº	O'quvchilar toifasi	Tayanch harakatida nuqsoni bor o'quvchilar
1	O'quvchilar hohish-idroki	O'quvchi qiziqish doirasi kuchli, aksariyat o'quvchilarni ishga bo'lgan munosabatida dangasalik alomati bor, asta sekin topshiriqlarni soddalashtirish tarafdori.
2	O'quvchi qobiliyati va imkoniyati	Dars mashg'ulotlari tushuntirilganda ko'p o'quvchilar uy ta'limida o'qiganligi uchun, eslab qolish qobiliyatlarini yaxshi emasligi, muammoni bartaraf etishda ustoz-shogird metodidan foydalanildi.
3	Shaxsiy kompyuterda amallar bajarish	Dastlab shaxsiy kompyuterdan foydalanish tartibiga rioya qilish, mavzuni o'zlashtirishda har bir topshiriqlar bajarish ketma-ketligi tarqatma materiallar asosida amallar bajarishda natijaga erishildi. Ustoz shogird metodi qo'llanildi.
4	Dars mashg'ulotida qo'llanilgan metodlar	SWOT tahlil, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, blits so'rov, so'z o'yini, Kim topqir, FSMU metodi, Xotira mashqi, Mantiqiy savollar.
5	Natijalar va tahlillar	So'z o'yini, FSMU metodi, Aqliy hujum, Kompyuterda tez yozish o'yinlarida yaxshi natijaga erishdilar. Barcha o'quvchilar qiziqish, amalda bajarish ketma-ketligiga erishildi.
6	Takliflar	O'quvchilarga dars mashg'ulotlarida o'tishda yengillashtirilgan holda metodlarni qo'llash, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga guruh ichidan ustoz-shogird tayinlash va ularni rag'batlantirish.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar o'rganish davrida faoliyatni va xulq-atvorni motivlashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Bolalar nimani yaxshi ko'rishadi va nimani istashadi?" degan savolga S.T.Shatskiy shunday javob beradi:

Bolalarda til topishish instinkti kuchli rivojlangan, ular bir-birlari bilan tezda tanishib oladilar - o'yinlar, hikoyalar, o'zaro gap sotish, lofchilik kabilalar ana shunday instinkning belgilaridir.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar tabiatan mohir tadqiqotchi. Ulardagi tez qo'zg'aluvchanlik, oxiri ko'rinxmaydigan savollar, hamma narsaga tegib ko'rish, ushlab ko'rish, tatib ko'rishga intilish sababi ana shunda.

O'quvchi o'zini ko'rsatib turgisi keladi, o'zi haqida, o'z taassurotlari haqida gapirgisi, o'rtoqlashgisi keladi. O'z menligini tez-tez namoyish etib turishi ana shundan. Uning fantaziyalari va tasavvurlari boy bo'ladi - bu bolalar ijodkorligi instinktidir. O'quvchilar hech narsadan bir narsa yaratishni, qandaydir g'ayrioddiy narsalarni to'qib chiqarishni yaxshi ko'rishadi.

O'quvchilarni zo'riqish va turli psixologik ta'sirlardan asrash, qiziqarli o'yinlar orqali bilimlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarni ziyraklik va chaqqonlikka hamda fikrini to'g'ri va aniq ifoda etishga undovchi o'yinlardan foydalanishi samarali natija beradi. Masalan, "G'oyib bo'lganini top" o'yinida turli geometrik shakllar yozuv taxtasi yoki magnitli doskaga tartibsiz joylashtiriladi. O'quvchilar shakllarni ko'rib bo'lgach, o'qituvchi "Tun", deydi. Bolalar ko'zini yumadi. O'qituvchi shakllardan bir nechtasini olib, yashiradi va "Kun", deydi. O'quvchilar ko'zini ochib, qaysi shakllar g'oyib bo'lganini aytishi kerak.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlanтирish kerak. Bunda turli ertaklardan foydalanish mumkin.

O'qituvchi dars o'tishda boshqa ko'plab usullardan ham foydalanishi lozim. Eng muhim, ular samara berishi.

Shuningdek, o'zlashtirishi past o'quvchilar uchun o'qish darsslarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali nafaqat o'quvchining o'qish savodxonligi ortadi, shu bilan birgalikda dunyoqarashi ham kengayadi.

Xulosa qilib aytsak, imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta'lif-tarbiyada texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yangi metodikalar fan foydalanish bilan bir qatorda ta'lif texnologiyalarini ham bu jarayon bilan uzviy ravishda bog'lab borishimiz kerak. Biz shu orqali pedagogik faoliyatga va o'quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirishga to'g'ri yondashgan bo'lamiz va passiv o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompotensiyalarini o'z o'rnila shakllantirishga erishamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
2. O.Suvonov va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi». «Xalq ta'limi», 2004 yil, № 5.
3. A.Musurmonov "Ta'lif-tarbiyada xalq og'zaki ijodidan foydalanish". T.: O'qituvchi, 1993.
4. A.R.Mavlonova. "Umumiy pedagogika". 166-bet.
5. [https://cyberleninka.ru/article/n/o-zlashtirishi-past-o-quvchilar-bilan-islash](https://cyberleninka.ru/article/n/o-zlashtirishi-past-o-quvchilar-bilan-ishlash)
6. <https://baxtiyor.uz/jaws-dasturidan-keng-foydalanish/>
7. Горовик, А. А., Турсунов, Х. Х. (2021) Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере scratch. UNIVERSUM, 8(77), 27-30.